

“HARAKATLAR STRATEGIYASI – TARAQQIYOT VA RIVOJLANISHNING MUHIM OMILI”

Rajabov Alisher Shavkatovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti
Qahramonova Jasmina Abror qizi
Tarix ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabasi
+998-88-855-66-78
jasminaqahramonova@540gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20519955>

Annotatsiya: Ushbu maqolada harakatlar strategiyasining qanday yo’nalishlarda qo’llanilishi kerakligi, uning maqsad va vazifalari, shuningdek, harakatlar strategiyasining muhim tushunchalari va asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Harakatlar strategiyasining sodir bo’lishi va uning muhimligi haqida nazariy va amaliy ko’rsatmalar bilan ta’minlanadi. Harakatlar strategiyasi – taraqqiyot va rivojlanishning muhim omili ekanligi keng yoritilgan.

Kalit so’zlar: “Harakatlar strategiyasi” ning beshta ustuvor yo’nalishi, davlat boshqaruv tizimi, ta’lim va fan sohasi, xavfsizlik, “Taraqqiyot strategiyasi”ning yettita ustuvor yo’nalishi, jinoyatchilikka qarshi kurashish, “Elektron hukumat” tizimi, raqamli iqtisodiyot.

Abstract: This article analyzes the directions in which the Action Strategy should be implemented, its goals and objectives, as well as its key concepts and main characteristics. The article provides theoretical and practical insights into the development and significance of the Action Strategy. It extensively highlights that the Action Strategy is an important factor in progress and development.

Keywords: The five priority areas of the Action Strategy, public administration system, education and science sector, security, the seven priority areas of the Development Strategy, crime prevention and combating crime, the Electronic Government system, digital economy.

Аннотация: В данной статье анализируются направления реализации Стратегии действий, её цели и задачи, а также основные понятия и ключевые особенности. Представлены теоретические и практические аспекты формирования и значения Стратегии действий. Подробно освещается роль Стратегии действий как важного фактора прогресса и развития.

Ключевые слова: Пять приоритетных направлений Стратегии действий, система государственного управления, сфера образования и науки, безопасность, семь приоритетных направлений Стратегии развития, профилактика и борьба с преступностью, система «Электронное правительство», цифровая экономика.

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash va aholi o’rtasida sog’lom turmush tarzini qaror toptirish, yuqori iqtisodiy o’sishga erishish hisobidan xalqimizning farovonligini oshirish va kundalik hayotidagi muammolarni hal etish, shuningdek, 2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha „Harakatlar strategiyasi” va O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan.Vazifalarning o’z vaqtida amalga oshirilishini ta’minladi.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotining barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni tomonidan 2017-yil 7-fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” farmoni qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur hujjat 2017-2021 yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishni ta‘minlashda muhim manba hisoblanadi. Harakatlar strategiyasi beshta ustuvor yo‘nalishidan iborat qilib belgilandi.

Bular:

- I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish ning ustuvor yo‘nalishlari.
- II. Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari.
- III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishari.
- IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.
- V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.

Harakatlar strategiyasidan ko‘zlangan asosiy maqsad-islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiya qilish va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iborat edi. Bu sohadagi islohotlarni amalga oshirish maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan g‘oya faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda. 2017-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilganini ta‘kidlab o‘tish joiz. 2017–2021-yillarda Prezident Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalariga kelib tushgan 5 mln. 780 mingdan ziyod murojaatlar ko‘rib chiqildi, shundan 3 mln. 288 mingdan ortig‘i qanoatlantirildi. Murojaatlarning to‘liq, o‘z vaqtida va qonuniy o‘rganib chiqilishi natijasida ularni qanoatlantirish darajasi ham yil sayin oshib bormoqda. Xususan, bu ko‘rsatkich 2017-yilda 47,5 foiz, 2018 yilda – 53,9, 2019-yilda – 60,9, 2020-yilda 60,4 foiz bo‘lsa, 2021 yilda 86,7 foizni tashkil etdi. Bugun, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalga tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish yo‘nalishidagi tub o‘zgarishlar xalqimiz hayotida o‘z aksini topmoqda. Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishda sudlarni “adolat qo‘rg‘oni”ga aylantirish, jumladan Oliy sud faoliyatini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratildi. Xususan, Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi birlashtirilib, Oliy sud faoliyati takomillashtirildi, sudya lavozimida bo‘lishning ilk marotaba besh yillik, keyin o‘n yillik muddati va muddatsiz davri belgilandi, sud tomonidan jinoyat ishini qo‘shimcha tergovga qaytarish instituti bekor qilindi. Fuqarolik ishi bo‘yicha sud qarorini nazorat tartibida qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini beruvchi muddat 3 yildan 1 yilga qisqartirildi. Sudyalarda daxlsizligini ta‘minlash va korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha sud inspeksiyasi tashkil etildi. Sud tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tatbiq qilinmoqda. Uzoq yillar davomida mamlakat uchun tamg‘a bo‘lib kelgan Jasliq jazoni ijro etish koloniyasi tugatildi. Qiynoqlarning oldini olish masalasiga davlat rahbari tomonidan alohida e‘tibor qaratilib, bu borada 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta farmoni va 6 ta qarori qabul qilindi. Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan afv etish tizimi yo‘lga qo‘yildi. 2017–2021-yillarda jazo muddatini o‘tayotgan 6 mingga yaqin mahkumga nisbatan afv etish aktlari qo‘llanildi. O‘tgan 5

yilda 3513 nafar, faqat 2021-yilning o‘zida 743 nafar shaxsga nisbatan oqlov hukmi chiqarildi. Shuningdek, 18026 nafar shaxs sud zalidan ozod qilinib, 33515 fuqaroga nisbatan asossiz qo‘yilgan moddalar ayblovlardan chiqarildi yoki o‘zgartirildi. 2018–2021-yillarda Gender tenglikni ta‘minlash, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini oshirish bilan bog‘liq 2 ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 ta farmon va qarori, Hukumatning 16 ta qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi tashkil qilindi. Ayol senatorlarning soni qariyb 30 foizga, deputat ayollar soni esa 50 foizga o‘tdi. Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha ta‘sirchan choralar ko‘rildi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta‘lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta‘minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Xulosa qilib aytganda, Harakatlar strategiyasi natijasida inson huquqlarini ta‘minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson ma‘nfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 30 yiligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma‘ruzasi. - Toshkent: O‘zbekiston. 2022.
2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. - 416 bet.
4. Qodirov, Bo‘ri O‘zbekistonning eng yangi tarixi [Matn]: darslik / — Toshkent: “Yoshlar mediaprint” nashriyoti, 2025. – 432 b.